



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

N.Allayarova ,
B. Ashurova

SamDU, talabalari

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TO'G'RI O'QISH VA YOZISHGA O'RGATISH METODIKASI

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini to'g'ri o'qish va yozishga o'rgatish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: nutq, harf, tovush, savod o'rgatish, adabiy til.

O'quvchilarni o'qishga o'rgatish uchun birinchi navbatda tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali esa bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalari shakllantiriladi.

“Aytishlaricha, faylasuf shoir Boborahim Mashrabni dastlabki bilimlarni olish uchun madrasaga olib borishadi. Ustozi “Alif”, “Be” deb alifboni o'rgatar ekan, Mashrab “Alif”ning ma'nosini bilmasdan, “Be”, demasman”, degan ekan. Shu ma'noda, har bir so'zni o'qib, uqish uslubini hozirgi zamonaviy ilm-fanlarni o'qitish jarayonida ham qo'llashni tavsiya etamiz. Chunki har bir fanda faqat ungagina tegishli lug'at-istilohlar mavjud va bu o'qitish uslubi mazkur fanni ilmiy asosda o'rganish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi” [1.19-20].



Shunday ekan, to‘g‘ri o‘qish va yozish ko‘nikmalarini boshlang‘ich sinfdayoq o‘quvchilarimizda shakllantirishimiz kerak. Buning uchun qanday ishlarni amalga oshirishimiz kerak?

Maktabda o‘qish elementar o‘qish va yozishga o‘rgatishdan boshlanadi. “Alifbe”ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o‘quvchilar o‘qish va yozishga o‘rgatiladi, ya’ni o‘qish va yozish ko‘nikmasini egallaydilar.

Savod o‘rgatish davrida o‘qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o‘qish va yozish ko‘nikmasi deyiladi. Bu ko‘nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko‘nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko‘nikmaga aylanmagan bo‘lishi mumkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o‘quvchi harflarni tanib, ularni o‘qiy olmasligi mumkin. Yozish ko‘nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya’ni yozish jarayonida partada to‘g‘ri o‘tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo‘yish kabilar ham o‘rgatiladi.[1;19].

O‘quvchilarda to‘g‘ri o‘qish va yozish ko‘nikmasini shakllantirishda ularning diqqati, xotirasi va tafakkuri ham rivojlangan bo‘lishi kerak.

O‘qish ham, yozish ham nutq faoliyatining turi bo‘lganligidan biz o‘quvchilarga to‘g‘ri talaffuz qilish, eshitgan so‘z, jumla yoki gapni to‘g‘ri yoza olishga o‘rgatishimiz zarur.

Nutq ichki fikr va qarashlarni ifodalash ehtiyojidan paydo bo‘ladi. Nutq jummalarni to‘g‘ri tuzishga o‘rgatish, ya’ni so‘zlarni qoldirmay, ma’lum izchillikda, bir-biri bilan to‘g‘ri bog‘lash va talaffuz qilish so‘ngra uni yozma shaklda ifodalash demakdir. O‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini shakllantirishda ularga nazariy ma’lumotlar berish ham maqsadga muvofiq. Ya’ni bilim va ko‘nikmalar anglangandagina yaxshi o‘zlashtirilishi, nutq faoliyatida kutilgan samarani berishi mumkin.[3;56]

6-7 yoshgacha bo‘lgan davrda ayrim ota-onalar bola nutqini rivojlantirish bosqichlariga befarq qaraydilar. Ko‘pincha, bola bir narsani aytmoqchi bo‘lib, ovoz chiqarsa, uning harakatidan nima demoqchiligini bilishga, uni gapirtirmasdan bajarishga harakat qiladilar yoki yosh bolalar og‘ziga so‘rg‘ich berib, ovutib, xalaqit



bermasligini istaydilar. Buning natijasida bolaning nutq a'zolari noto'g'ri rivojlanib boradi.

Ba'zi ota-onalar esa bola hayajon bilan biron narsani gapirmoqchi bo'lsa, uni to'xtatib, "ko'p gapirma" deb, fikrini bo'ladilar. Bola bilan kam gaplashish, noto'g'ri muloqot natijasida nutq yaxshi rivojlanmaydi va bola maktabda o'qish jarayonida ko'p qiyinchiliklarga duch keladi. O'z fikrini, o'qiganlarini yaxshi bayon qila olmaydi. Bu holat, albatta, o'quvchining maktab dasturini o'zlashtirmasligiga sabab bo'ladi.[2;123].

Pedagog-o'qituvchi savod o'rgatish davrida tovushning yozuvdagi ifodasini, harfning talaffuzda qanday namoyon bo'lishini to'g'ri o'rgatishi kerak. O'qituvchi shevaga xos talaffuzda o'rgatishi mutlaqo noto'g'ri. Ko'pchilik o'rinlarda duch kelamizki, ayrim joy shevalarida e va i, u – o' tovush-harflarining talaffuzi va yozuvida chalkashliklarga duch kelishadi. Bu chalkashlik boshlang'ich sinfdayoq o'qituvchi tomonidan bartaraf etilishi kerak. Biz shevada gapirish xato deb aytmayapmiz, balki sheva bilan adabiy til me'yorlarining farqini va birlashtiruvchi xususiyatlarini ajrata oladigan yosh avlodni tarbiya qilishimiz maqsadga muvofiqdir.

Misol uchun, o'quvchi i va e tovush-harflarini adabiy tilda farqlashga qiynalsa, quyidagi so'zlar orqali o'quvchiga tushuntirish lozim:

Ichki-echki

Ilon-e'lon

Ichki – ich qismda joylashgan, ichkari.

Echki – shoxli uy hayvoni.

Ilon – sudralib yuruvchi, oyoqsiz hayvon.

E'lon – ko'pchilikka yetkazilishi zarur bo'lgan xabar.

Bu so'zlarni qiyoslash va ma'nosini farqlash orqali o'quvchida to'g'ri o'qish va yozish ko'nikmasi yaxshilanadi.

O'qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta'minlaydi. Shuning uchun ham o'qishga o'rgatish bilan yozuvga o'rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida bola juda ko'p o'qishi va yozishi zarur. O'qish uchun



ham, yozish uchun ham yangi matn olinadi, chunki bir matnni bir necha bor qayta o‘qish bilan maqsadga erishish qiyin. Bu, ko‘pincha, o‘qilgan matnni yuzaki yodlab olishga olib keladi. Takroriy faoliyatda vaziyat va mazmunning almashinishi malakani mustahkamlashga yordam beradi, qobiliyatni o‘stiradi. O‘quvchi oldida uzoq muddatda amalga oshadigan maqsad – o‘qish va yozishni o‘rganish hamda hozirda bajarishi shart bo‘lgan kundalik maqsad – topishmoqni o‘qish va javobini topish, so‘z va gaplarni o‘qish, rasm asosida so‘zlab berish kabilar turadi.

Savod o‘rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So‘z bo‘g‘inga bo‘linadi, bo‘g‘indan kerakli – o‘rganilayotgan tovush ajratib olinadi, tahlil qilinadi, o‘rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o‘qish jarayoni o‘zlashtiriladi. Bunda o‘zbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi.[1; 20].

O‘quvchilarga to‘g‘ri yozish va o‘qishni o‘rgatish jarayoni o‘qituvchi-pedagogdan katta mehnatni talab qiladi. Har bir o‘quvchi bilan individual shug‘ullanishi lozim. O‘quvchi qo‘lidan ushlab ruchkani qanday ushlab, harakatga keltirish, har bir harfni qonun-qoidasiga binoan yozishni o‘rgatadi.

Agar o‘quvchilar to‘g‘ri yozmasa, bu so‘zning ma‘nosiga ta‘sir qilishi yoki hech bir ma‘no anglatmasligi tushuntiriladi.

Bolaga harf o‘rgatishda obrazlar bilan ishlash yaxshi natija beradi. Bolaning tasavvur olami obrazlarni ilg‘ab olishga moyil bo‘ladi. Bola rasmda nimani ko‘rayotganligini, ko‘rgan narsalari haqida gapirib berar ekan, ularni sinchiklab kuzatadi. Kuzatish asnosida uning tasavvurida harf ko‘rinishidagi predmetlar tasviri mukammal saqlanadi. Bu obrazlar ongda shunday joylashadiki, endi uni ishlatish, so‘z va bo‘g‘inlarni o‘qishda transformatsiyalash asosida o‘ziga qulaylik yarata oladi. Shu asosda o‘quvchida o‘qish jarayoni faollashadi.[4;36]

Mashg‘ulot paytida o‘quvchilarda to‘g‘ri o‘qish va yozishni shakllantirishda quyidagi usuldan ham foydalansak, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

O‘qituvchi bir nechta yozilishi va o‘qilishi oson bo‘lgan narsa-buyumlarning rasmini birma-bir o‘quvchilarga ko‘rsatadi. O‘quvchilar har bir rasmni ko‘rganda nomini adashmasdan daftarlariga yozishi kerak bo‘ladi. Misol uchun, o‘qituvchi



nonning rasmini ko'rsatadi. O'quvchilar daftarlariga "non" so'zini yozadilar. O'qituvchi gulning rasmini ko'rsatadi. O'quvchilar esa daftarlariga "gul" so'zini bexato yozishlari kerak bo'ladi. O'quvchilar bilim va ko'nikmalari rivojlangan sari bu metod murakkablashtirilib boriladi. Shu va shunga o'xshash metodlarni qo'llash orqali o'quvchilar nafaqat eshitish va u orqali to'g'ri yozishni o'rganadilar, balki tasvirlarni ko'rish orqali vizual tasavvur, tafakkurlari boyiydi.

To'g'ri o'qish va yozish ko'nikmasi savodxonlik davridan boshlab o'rgatiladi. Ammo bu o'quvchilar savodxonlik davrida xato qilmasdan to'g'ri o'qib, yoza oladi degani emas. O'quvchilar nafaqat tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, harflarni to'g'ri, husnixat bilan yozish, tutuq belgili so'zlarning talaffuzi va imlosini bilishni, balki so'z urg'usi, gap urg'usiga e'tiborli bo'lish, so'roq gap, darak gap, buyruq gap va hishayajonli gaplarning farqi (bular haqida nazariy ma'lumotlar berilmasa-da, o'quvchilar dastlabki ma'lumotlarga ega bo'ladilar), tinish belgilariga rioya qilib o'qish va ularni to'g'ri yozish kabi bilim, ko'nikma va malakalarni 1-4-sinfda o'zlashtirib boradilar.

4-sinf Ona tili darsligi, asosan, imlo, husnixat, so'zlarning ma'no-izohi, gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari va grammatikaga bag'ishlangan. E'tiborimizni ushbu darslikdagi "Tovushlar va harflar" mavzusidagi 91-mashqqa qaratamiz:

91- mashq. O'qing. Ko'chiring. So'z ma'nolarini farqlayotgan tovushlarning tagiga chizing. So'zlarning ma'nosini tushuntiring.

1. Mard — mart, yod — yot, sop — sof.
2. Shoh — shox, xush — hush, uxladi — uhladi.
3. Asr — asir, asl — asil.

So'zlarning aytilishi va yozilishini taqqoslang. Qaysi tovushlarning aytilishi yozilishiga mos kelmaydi? Nima uchun? O'ylab ko'ring.[4:40]

O'quvchilar bu mashq orqali bir tovush-harf orqali farq qiladigan so'zlarning ifodalanishi, ya'ni imlosi va izohi bilan yaqindan tanishadilar. Bitta tovushni o'zgartirish orqali ma'no-mazmun ham o'zgarishi o'quvchilarga tushuntiriladi. Bu



kabi mashqlarni bajarish orqali to'g'ri o'qish va to'g'ri yozish o'quvchilar tafakkurida yaxshi rivojlanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'qituvchi o'quvchiga to'g'ri o'qish va yozishni o'rgatishi uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi adabiy til me'yorlaridan boxabar bo'lmog'i shart. O'quvchining to'g'ri o'qishi va to'g'ri yoza olishi uchun uning partada qay holda o'tirishi, ruchkani qanday holatda tutishi va kitobi va daftari parta ustida turish o'rni va holatigacha e'tiborli bo'lishi talab etiladi. Shu bilan birga, savod o'rgatish jarayonini to'g'ri tashkil qila olishi va har bir o'quvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quvchining talaffuzi va imlosi ustida ishlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, Noshir, 2009.
2. Shomahmudova R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish. – Toshkent, “ILM ZIYO”, 2013.
3. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o'qish savodxonligi metodikasi. –Toshkent, “Innovatsiya-ziyo”, 2022.
4. Ikromova R. va b. Ona tili: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. –Toshkent, “O'qituvchi”, 2017.